

## O'QUVCHILARNI XARBIY-VATANPARVARLIK RUXIDA TARBIYALASHDA MILLIY IFTIXOR TUYG'USINI SINGDIRISHNING O'ZIGA HOS IMKONIYATLARI

**Raxmonov Azamat Ruzvonovich**

TVCHDPI "Umumiy pedagogika"

*kafedra katta o'qituvchisi*

*Tel: +998(94)5145579, [a.raxmonov@cspi.uz](mailto:a.raxmonov@cspi.uz)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'quvchilarni xarbiy-vatanparvarlik ruxida tarbiyalashda o'z tug'ilib o'sayotgan mamlakatlarini sevishlari, ulug' ajdodlarimizning mardlik va dovyuraklik g'oyalari amal qilishlari haqida fikr yuritildi.

**Tayanch iboralar:** Xarbiy vatanparvarlik, Milliy pedagogik qadriyatlarni, Vatan tuyg'usi, Vatanga sodiqlik, mamlakat mudofaasini ta'minlash.

O'zbek xalqining ma'naviyatida millatning o'tmishi, hozirgi kuni o'z ifodasini topgan. Mustaqil O'zbekiston madaniyatning barcha yo'nalishlarida jahonshumul kashfiyotlarni yarata olgan minglab allomalarni yetishtirib bergan o'lka hisoblanadi. Ular umumbashariy ahamiyatga ega ma'rifatning shakllanishiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar. SHuning uchun ham o'zbek milliy-ma'naviy merosi jahon madaniyatining ajralmas qismi, uzviy bo'lagidir.

Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan buyuk allomalarning shaxs kamoloti va uni ta'minlash to'g'risidagi qarashlari zamonaviy bosqichda jahon ta'limi uchun muhim asosdir. Milliy pedagogik qadriyatlarni mavjud sharoitda demokratik qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish, ta'lim mazmuniga insonparvarlik va demokratik g'oyalarni singdirish, o'quv jarayoniga ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish - davr talabidir. SHu sababli, O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat maqomiga ega bo'lgandan keyin istiqloq talablari, qurilajak huquqiy demokratik davlat, adolatli, insonparvar jamiyatga mos kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbek xalqi mustaqillikka erishgani tufayli o'tmish avlodlar qoldirgan boy ma'naviy-madaniy merosni o'rganish va qayta tiklashga musharraf bo'lmoqda.

Fan va madaniyat namoyandalarining asarlarida ifodalangan ma'naviy-axloqiy g'oyalar ham insonlar ruhiyati va ma'naviyati taraqqiyotida, yoshlarda ezgulik va iftixor tuyg'usining rivoj topishida muhim vosita bo'la oladi.

o'quvchilarda ajdodlar, shuningdek, bugungi davr qahramonlarining faoliyati, jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, madaniyati, san'ati, fan-texnika, ishlab chiqarish sohalarida erishilayotgan yutuqlari bilan faxrlanish, g'ururlanish, iftixor etish tuyg'usini qaror toptirish uzluksiz ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan muhim ijtimoiy vazifalardandir.

Eng avvalo, ularning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda harbiy ta'lim berish, mamlakat mudofaasini ta'minlash yo'lida kasbiy, ma'naviy, ruhiy barqarorligi uchun yo'naltirilgan "YOshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash" va "Maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikning uzviyligini ta'minlash" konsepsiyalaridan maqsadli foydalanib, harbiy fanlarni o'qitish tizimida milliy iftixor g'oyalari orqali tarbiyalash dolzarbligini keltirib chiqaradi.

Milliy iftixor va g'urur tuyg'ularini yuksaltirishda buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdining bosib o'tgan shonli yo'li dasurulamaldir. CHunki u o'z hayotida davomida manfaat, amal va boylik ortirish uchun emas, balki elu yurtini cheksiz sevuvchi, Vatani uchun jonbozlik ko'rsatuvchi vatanparvar bo'lib o'tgan.

Sohibqiron bobomiz Amir Temurning bu boradagi roli ham juda kattadir. Xususan, bu yuzasidan birinchi prezidentimiz Islom Karimov: «Amir Temur tuzuklarini o'qisam, xuddi bugungi zamonning katta-katta muammolariga javob topganday bo'laman», – deb yozishi ham bejiz emas. Darhaqiqat, «Temur tuzuklari»da falsafiy, ijtimoiy-pedagogik, iqtisodiy, huquqshunoslik, psixologiya va harbiy ilm haqidagi fikrlar o'z

ifodasini topgan. Uning ta'lim-tarbiyaviy qarashlarida yoshlarning jismoniy va harbiy tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilgan. SHu o'rinda harbiylar haqidagi quyidagi nasihatlarini ham keltirish o'rinlidir: «YOshi ulug', keksa sipohiylarni hurmatlab, aziz tutsinlar. Ulardan foydali maslahatlar olsinlar, chunki ular aytadigan gaplar o'z tajribalarida ko'rib, bilganlaridir».

Hozirgi yoshlar Bobur Mirzodek temir irodali buyuk shaxslarni kamdan-kam biladi. Uning ma'naviy-ma'rifiy qarashlarida Vatan tuyg'usi salmoqli o'rin tutadi hamda Vatanga sodiqlik, ichki, tashqi dushmanlarga erk bermaslik kabi jiddiy o'g'itlari bugungi kunda ham o'z mazmunini yo'qotgani yo'q. Tarixiy manba va asarlarning qimmatini shundaki, u ichki ishlar vazirligi ta'lim muassasalaridagi kursant (tinglovchi)larning tarixiy o'tmishga hurmat, sadoqat ruhida tarbiyalaydi. Ajdodlar jasorati, vatanparvarligi bilan kamol topgan kursant (tinglovchi)lar, albatta kelajak-ka ishonch bilan intiladi.

Aytish joizki, uzoq o'tmishdan o'zbek xalqining buyuk davlat arboblari qoldirgan boy madaniy meros vositalari bugungi kunda ta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya jarayonida o'quvchilarni milliy iftixor g'oyalari ruhida tarbiyalashning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

SHuningdek, bu borada xorijlik tadqiqotchilarning nuqtai nazarlari mavjud bo'lib: X.Tillayev, K.N. Menlibayev, V.M. Xuastov, A.YU.Parashin, G.A.Tixomirov, I.V.Proshek, N.A. Ivashkina, M.A.Eshev, V.A.Ruja, X.A.Djurayev, ye.R. Turskaya, V.V. Sulimin, A.A.Kalekin, P.V.Klimenko, X.T. Qayumovalar vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimida muayyan tadqiqotlar olib borganlar.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda A. D.Redjaboyev, R.YU. Kurbonov, E.T.Kalkonov, K.X. Usmonov, SH.B.Atajanova, J. Raximovlar tomonidan yoshlarni vatanparvarlik, harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ilmiy qadriyatlar, tarixiy o'lkashunoslik manbalaridan foydalanishning pedagogik asoslari, qonuniyatlari ko'rsatib berildi hamda vatanparvarlik, harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyaiyalari yaratildi.

B.SH.Mirzalimov G.X. Ibragimova D.K.Arabbayeva I.B. Suvanov R.I.Oripova N.X. Vohidova T.X. Qurbonov M.S. Xajiyeva O'M. Askarovalar tomonidan yoshlarda milliy istiqloq g'oyasi, milliy g'ururni shakllantirishda madaniy merosning roli va pedagogik xususiyatlari ochib berilib, ijtimoiy-falsafiy tahlil qilindi. L.U. Ravshanov, Z.SH. Alimardonov, U.S. Temirova, N.J. Eshnayevar tayyorlashning g'oyaviy asoslari ochib berilib, qo'llanmalar yaratildi.

Q.B. Qodirov tomonidan 1991–2011 yillardagi O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari faoliyati ochib berildi va qo'llanmalar yaratildi. Biroq yuqoridagi olimlarning tadqiqot ishlarida harbiy ta'lim tizimida yoshlarni milliy iftixor g'oyalari ruhida tarbiyalash ilmiy jihatdan tahlil etilmagan.

Xulosa qiladigan bo'lsak o'quvchilarni xarbiy-vatanparvarlik ruxda tarbiyalashda milliy iftixor tuyg'usini singdirishda jondan aziz mamlakat uchun mard va jasur yoshlarni har tomonlama rivojlantirish xamisha yuksak vazifalar sifatida qoladi.

Har bir rivojlanayotgan davlat asosiy qudratini qurolli kuchlari bilan va uning harakatchilari yosh navqironlarni xarbiy jangovor o'sishini maktab davridan axamiyat qaratib sharoitlarni yaratadi. Biz ham shu jumladan hozirda o'quvchilarni xarbiy-Vatanparvarlik ruxda o'sishlarini o'quv-tayyorgarliklari, jangovor taktikalari, tarixiy bilimlari va jismoniy tarbiya birga amalga oshirsak faoliyat yuksak samarasini ko'rsatishiga amin bo'lamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Prezident Mirziyoyev SH. O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlar tashkil etilganining 26 yilligi va Vatan ximoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi // Postda.2018. – 3-son.– B.
2. Prezident Mirziyoyev SH. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 25 yil–ligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigi // Xalq so'zi. 2017 yil 15 yanvar'.
3. Aminov B., Rasulov T. Vatan – yurakdagi javohir // Toshkent: O'qituvchi, 2001.-B.206.
4. Vatan tuyg'usi. (Sultonov X. tahriri ostida) // Toshkent: O'zbekiston, 1996. – B. 396.